

ERASMUS+ DASTURI

2022-yil 10-14-may kunlari O'zbekistonda Erasmus+ haftaligi bo'lib o'tadi, uning doirasida turli maqsadli guruhlar uchun bir qator tadbirlar tashkil etiladi. Haftalik davomida Yevropa universitetlari bilan hamkorlik qilish va individual qisqa muddatli mobillik grantlarini, magistratura va doktorantura uchun stipendiyalar olish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

ERASMUS+ HAFTALIGI VAZIFALARI

- Erasmus+ dasturining imkoniyatlari, Yevropa universitetlari bilan hamkorlikda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari uchun ochiq bo'lgan ma'lumotlarni taqdim etish;
- Yevropa hamkor universitetida qisqa muddatli ta'lim olish, doktorantura va magistraturada to'liq ta'lim va diplom olish, OTM professor-o'qituvchilar uchun dars berish va ilmiy tadqiqot olib borish bo'yicha mavjud imkoniyatlar haqidagi to'liq ma'lumotlar berish va Erasmus Mundus dasturi bitiruvchilarining xalqaro ta'lim tajribalari bilan tanishtirish;
- Ma'lumot izlash, ta'lim olish uchun talabnomalarni tayyorlash va topshirish bo'yicha amaliy maslahat va tavsiyalar taqdim qilish;
- Yevropa kunini nishonlash doirasida bir qator tadbirlar o'tkazish.

ISHTIROKCHILAR

Ishtirokchilar: oliy ta'lim muassasalari talabalari, doktorantlari, o'qituvchilari va xodimlari

TASHKILOTCHILAR

O'zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisi, Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi Delegatsiyasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy ta'lim sohasi bo'yicha ekspertlar Milliy guruhi, Erasmus+ dasturi loyihalarining jamoa a'zolari, Erasmus Mundus bitiruvchilari

ERASMUS+ DASTURINING O'ZBEKISTONDAGI FAOLIYATI

Yangi Erasmus+ dasturi (2021-2027) chet elda o'qish, stajirovka, ishlab chiqarish amaliyotini o'tash va akademik xodim va o'qituvchilararo almashinuv, yoshlar va sport kabi barcha sohalarida bilim almashish uchun imkoniyatlar yaratadi.

2021 yil mart oyida Yevropa Komissiyasi tomonidan 2021-2027 yillar uchun Erasmus+ dasturining yangi bosqishini e'lon qildi. Dastur byudjeti 26,2 milliard yevroni (2014-2020 yillarda - 14,7 milliard yevro ajratilgan), Yevropa Ittifoqining tashqi vositalaridan taxminan 2,2 milliard yevroni tashkil etadi. Yangi dastur yanada keng qamrovli, "yashil" va raqamli texnologiyalarga o'tishda yordam beradi. Erasmus+ pandemiya davrida o'qish va ta'lim tizimlarining barqarorligini qo'llab-quvvatlaydi.

Tanlovda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Erasmus+ dasturining quyidagi yo'nalishlar bo'yicha ishtirok etish imkoniyatlari mavjud:

Capacity Building in Higher Education (CBHE)

International Credit Mobility (ICM)

Erasmus Mundus Joint Masters (EMJM)

Erasmus Mundus Design Measures (EMDM)

Jean Monnet Actions

"Horizon Europe" – Marie Skłodowska-Curie Actions dasturi doirasida yosh olimlarga ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalarda ko'maklashish ko'zda tutilgan.

Xalqaro kredit mobilligi talabalar, tadqiqotchilar va o'qituvchilarning xalqaro almashinuvini, universitetlar o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashni qo'llab-quvvatlaydi. Talabalar, o'qituvchilar, oliy ta'lim muassasalari xodimlari ushbu yo'nalishdagi savollar bilan o'z universitetining xalqaro aloqalar bo'limiga murojaat qilishlari mumkin.

Erasmus Mundus qo'shma magistrlik dasturlari (EMJMD) o'qish, o'qitish va/yoki tadqiqot uchun stipendiyalarni taqdim etadi. Dastur mohiyati, ta'lim traektoriyalari, hujjatlarni topshirish va tanlov jarayoni haqida batafsil ma'lumotni siz qiziqqan qo'shma magistratura dasturining web-saytidan olishingiz mumkin.

2015-2020-yillarda jami 6 ta tanlov doirasida **Oliy ta'lim salohiyatini oshirish** (CBHE) bo'yicha **43 ta loyiha**, jumladan, Yevropa va O'zbekiston universitetlari ishtirokidagi 12 ta milliy loyiha, 11 ta mintaqalararo va Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan hamkorlikda 20 ta hududiy loyihalar moliyalashtirildi.

O'zbekiston ishtirokidagi 43 ta loyihaning umumiy byudjeti 36,6 million yevroni tashkil etadi, shu jumladan, O'zbekistondagi universitetlar uchun 11,5 million yevro (31,4 %). Ayni paytda O'zbekistonda respublikaning 33 ta oliy ta'lim muassasalari hamda Yevropaning 24 ta va Markaziy Osiyoning 5 ta davlatidan 68 ta universitet ishtirokida 19 ta loyiha amalga oshirilmoqda.

Xalqaro kredit mobilligi (ICM) bo'yicha Yevropa universitetlari bilan 432 hamkorlik doirasida 2,5 million evro byudjetdan iborat 2067 qisqa muddatli almashinuvlar amalga oshirildi.

O'zbekistondagi Erasmus+ milliy ofisining ijtimoiy tarmoqlardagi yangi sahifalari:

Twitter: Erasmus+ in Uzbekistan (@ErasmusUz)

<https://twitter.com/ErasmusUz?t=Z-E-XXeepfI5Nc4ulUv-Nw&s=09>

LinkedIn: National Erasmus+ Office in Uzbekistan

<https://www.linkedin.com/company/erasmusinuzbekistan/>